

HARBIY PSIXOLOGIYANING UMUMIY ASOSOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6596689>

**Dadilov Doniyor Baxtiyor o'g'li
Qobilov Zufarjon Raximjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi Universiteti kursantlari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning o'z kasbiga tayyorlab borishda ularning shaxsiy-psixologik xususiyatlari, rivojlanish psixologiyasining mohiyati va umumiy asoslari xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so`zlar: *harbiy psixologiya, kasbiy burch, harbiy faoliyat, harbiy ta'lif*

Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati bevosita va bilvosita zo'riqish, xavotir bilan bog'liqdir. Zo'riqish va xavotirni oldini olishda psixologik bilimlarning roli benihoya kattadir. Zamonaviy harbiy xizmatchi bugungi kunda o'ta kuchli darajada psixologik, bilimlariga muhtojlik sezishmoqda. Bugungi kunda harbiy xizmatchilarga bo'lgan talab benihoya oshdi, buning sababini bugungi kun talabi, bugungi kunning ehtiyoji bilan bog'lamoq darkor.

Psixologik xizmat ko'rsatish, bu – harbiy qism, harbiy ta'lif muassasalari kabi muassasalarning harbiy xizmatchilar, jamoa a'zolari, turli toifadagi komandirlariga harbiy xizmatni o'tash jarayonida, ularning individual psixologik salomatligini, ijtimoiy-psixologik holatini, "komandir-bo'ysunuvchi", "bo'ysunuvchi-bo'ysunuvchi", "bo'ysunuvchi-harbiy xizmat (kasbiy burch)", "komandir-komandir", "komandir-harbiy jamoa" kabi xizmat munosabatlarini me'yorida saqlash maqsadidatadbirlarni amalga oshirishni rejalashtiruvchi, amalga oshiruvchi, ta'minlovchi, ya'ni institutsional darajada tashkil etilgan faoliyat turidir. Bu faoliyat turi, komandirlik hamda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha komandir o'rinciosarining funksional majburiyatları doirasida bajariladigan vazifalarining mazmunini individual- shaxsiy xususiyatlari va harbiy xizmat davomida vazifalarni bajarish uchun amalga oshiriladigan harakatlar muvozanatini ta'minlovchi hisoblanadi.

Harbiy faoliyat tizimini takomillashtirishda amaliy psixologik xizmat quyidagilarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi:

- harbiy kasb ixtisosliklari bo'yicha professiogrammalar tayyorlash, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentlik darajasini aniqlash;

- harbiy xizmat (mehnat) jarayonida barcha toifadagi harbiy xizmatchilarni o'z vazifalarini bajarish uchun qulay shart- sharoitlarni yaratish, ya'ni individual, yoshi va

jinsiy o'ziga xosligini inobatga olib, ularning xizmati davomidagi psixologik barqarorligini ta'minlash;

- harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlari va harbiy mehnat talablarini inobatga olib, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun amaliy psixologik tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va uni harbiy amaliyotga tadbiq etish;

- harbiy jamoalarda ijtimoiy-psixologik jarayonlarning rivojlanishini ta'minlash, psixodiagnostikasini, psixologik prognozini amalga oshirib, psixokorreksiya o'tkazish uchun dasturlar tayyorlash;

- komandirlarga harbiy jamoa va alohida harbiy xizmatchining kundalik faoliyatidagi psixologik jarayonlarni boshqarishda amaliy yordam (psixologik maslahat, psixologik ma'rifat va b.) ko'rsatish;

- harbiy xizmatchilarning kasbiy vazifalarini bajarish davomida to'liq intellektual qobiliyatlari va iqtidorini shakllantirishga, namoyon etishiga yordam berish;

- harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga amaliy psixologik yordam (psixokonsultatsiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya va psixoterapiya) ko'rsatish;

- "harbiy xizmatchi ↔ harbiy jamoa", "harbiy xizmatchi ↔ harbiy kasb majburiyatları", "komandir ↔ bo'ysunuvchi ↔ kasbiy texnika va qurol" kabi munosabatlar tizimini barqarorligini saqlash va b.

Umuman olganda, harbiy faoliyat tizimida psixologik xizmatni joriy etish mamlakat mudofaasini amalga oshirish nuqtai nazaridan ham bir qancha qulayliklarga ega bo'lib, bunda uning psixologik, harbiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy jihatlari mavjudligini e'tiborga olish lozim. Psixologik xizmat ko'rsatishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda unga qo'yiladigan talablarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin.Ya'ni, amaliy psixologik yordam ko'rsatish amaliyotida harbiy psixolog harbiy kasb talablariga; harbiy psixologik talablarga; fiziologik talablarga; texnika xavfsizligi tabalariga; harbiy kasbning gigiyenik talablariga; harbiy kasbning estetik talablariga qat'iy rioya etgan holda, amaliy harbiy-psixologik yordam ko'rsatishi lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, harbiy kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyasini inobatga olib joy-joyiga qo'yish bevosita ilmiy yondashuvni talab etadi va bu jarayon aniq psixologik metodika, testlar yordamida amalga oshirilishini talab etadi. Shu bois qurolli kuchlar tizimi uchun yangi hisoblangan psixologik texnologiyalar orqali amalga oshirilishi ahamiyatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya: Uchebnik dlya studentov ped. in-tov/ .V.V.Davydov, T.V.Dragunova, L.B.Itelson i dr.; Pod red. A.V.Petrovskogo. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M.: Prosveshchenie, 1979. – 288 s.
2. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o'quv qo'llanma/ M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1974. – 194 s.
- 3.Kon I.S. Psixologiya ranney yunosti: Kn. dlya uchitelya. – M.: Prosveshchenie, 1989.–
- 4.www.arxiv.uz